

XALQARO MUNOSABATLAR VA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING UNDAGI O'RNI VA ROLI

Ro'zimov Qudratbek Qurbonboyevich, Buxoro davlat universiteti "Tarix va yuridika" fakulteti "Yurisprudensiya" yo'nalishi 4-bosqich talabasi

INTERNATIONAL RELATIONS AND THE PLACE AND ROLE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN IN IT

Ruzimov Kudratbek Kurbonboyevich, Bukhara State University 4th year student of the Faculty of History and Law, majoring in "Jurisprudence"

МЕЖДУНАРОДНЫЕ ОТНОШЕНИЯ, МЕСТО И РОЛЬ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В НИХ

Розимов Кудратбек Курбонбоевич, студент 4-курса историко-юридического факультета по специальности "Юриспруденция"

Бухарского государственного университета

Annotatsiya: Ushbu maqola davlatlarning va tashkilotlarning xalqaro munosabatlardagi ishtirokini tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib, unda yaqin o'tmish va bugungi kundagi dunyo hamjamiyatining siyosiy munosabatlarini yoritib berishga va shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining ushbu munosabatlardagi o'rni va rolini subyektiv tahlil qilishga harakat qilindi. Shu jumladan, O'zbekistonning xalqaro tuzilmalardagi ishtiroki va turli davrlar bilan o'rnatilgan do'stona munosabatlariga to'xtalib o'tildi. Maqola davomida aniq link prinsipiga qat'iy rioya qilindi.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, tashqi siyosat, strategiya, xalqaro munosabatlar, qonun, BMT, hujjat.

Abstract: This article is devoted to the analysis of the participation of states and organizations in international relations, in which an attempt was made to shed light on the political relations of the world community in the recent past and today, and at the same time, to subjectively analyze the place and role of the Republic of Uzbekistan in these relations. In particular, the participation of Uzbekistan in international structures and the friendly relations established with various states were touched upon. Throughout the article, the principle of clear links was strictly adhered to.

Key words: Constitution, foreign policy, strategy, international relations, law, UN, document.

Аннотация: Настоящая статья посвящена анализу участия государств и организаций в международных отношениях, в которой предпринята попытка осветить политические взаимоотношения мирового сообщества в недавнем прошлом и настоящем, а также объективно проанализировать место и роль Республики Узбекистан в этих отношениях. В частности, затронуты вопросы участия Узбекистана в международных структурах и дружественные отношения, установленные с различными государствами. В статье строго соблюдается принцип чёткости связей.

Ключевые слов: Конституция, внешняя политика, стратегия, международные отношения, закон, ООН, документ.

Kirish. Tarixdan olib qaraydigan bo'lsak, xalqaro munosabatlar qadimgi urug'chilik jamiyati va ibtidoiy jamoa tuzumi davrlaridan boshlab muhim hisoblangan. Qadimgi davrlarda, ya'ni,

davlatchilik tuzilmasi hali tashkil topib ulgurmagan paytda odamlar alohida urug'lar va jamoalarga bo'linib hayot kechirishgani ko'pchilikka ma'lum. Aynan o'sha urug'lar va



<https://orcid.org/0009-0002-9918-0023>

e-mail:
rozimovqudratbek@gmail.com



jamoalar o'rtasidagi siyosiy, madaniy, iqtisodiy va boshqa aloqalar qadimgi davrlardagi o'zaro munosabatlarga misol bo'la oladi. Davlatchilik tuzilmalari tashkil topgach esa ularning rivojlanishiga mutanosib ravishda xalqaro munosabatlar ham har tomonlama rivoj topa boshlagan. Oradan ancha vaqt o'tgach, ya'ni, ko'plab davlatlar o'z rivojlanish davrlarini boshdan kechirayotgan o'rta asrlarda Yevropa va keyinchalik Shimoliy Amerika mintaqalaridagi davlatlar o'rtasida o'zaro munosabatlar anchagina rivojlana boshladi. Ushbu davr mobaynida Angliya, Germaniya, Fransiya kabi yirik davlatlar xalqaro munosabatlarda katta sahnaga chiqdilar. 1776-yilda Amerika Qo'shma Shtatlari davlatiga asos solindi va ushbu davlat qisqa muddat ichida ichki va tashqi munosabatlarda juda katta muvaffaqiyatlarga erishdi va rivojlanib bordi. XIX – XX asrlarga kelib AQSh iqtisodiyot ko'rsatkichlari bo'yicha dunyoda birinchi o'ringa chiqib oldi. Aynan shu yillar davomida xalqaro munosabatlarda ko'plab kelishuvlar va muzokaralarga erishildi. Endi ushbu shartnoma, kelishuv, muzokaralarning eng muhim ahamiyatga ega bo'lganlariga alohida to'xtalib o'tsak:

XX asr davomida, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, ikkinchi jahon urushidan so'ng xalqaro munosabatlarda ro'y bergan va eng muhim ahamiyatga ega bo'lgan siyosiy jarayonlarga misol qilib quyidagilarni keltirish mumkin: Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) tuzilishi, Yevropa Iqtisodiy Hamkorligi (YIH) shartnomasining imzolanishi, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining qabul qilinishi, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining (MDH)ning tuzilishi va boshqa muhim shartnomalar hamda hujjatlar.

Bilamizki, butun dunyo xalqi qisqa muddat ichida dunyoni larzaga keltiradigan, dahshatli, ayovsiz va qaqshatqich urushlardan ikkitasini boshidan kechirdi. Birinchi va Ikkinchi jahon urushlariga guvoh bo'lgan dunyo hamjamiyati endilikda butun dunyoda tinchlik hukm surushini istar edi. Ammo keyinchalik siyosiy jarayonlar shuni ko'rsatdi-ki, dunyo ikki qutbli sovuq urush bo'sag'asiga qadam qo'ydi. Siyosiy xaritada davlatlar ikkita gegemon davlat – AQSh va SSSR (Союз Советских Социалистических Республик) davlatlari boshchiligidagi ikkita qutbga bo'lindi. Bir-biriga qarama-qarshi davlatlar o'rtasidagi o'zaro kurashlar va tahlikali vaziyatlar

bo'lishiga qaramasdan dunyo hamjamiyati tomonidan tinchlik va rivojlanish sari birinchi qadam – Birlashgan millatlar tashkilotiga asos solindi.

1991-yil 31-avgust sanasi tarixga oltin harflar bilan yozilgani hech kimga sir emas. Ushbu sanada mustaqillikka erishgan O'zbekiston Respublikasi qisqa muddat ichida xalqaro hamjamiyatga muvaffaqiyatli qo'shilib ketishni mukammal darajada uddaladi – yuqorida sanab o'tilgan tashkilotlarga a'zo bo'ldi va ko'plab xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qildi. Ko'plab davlatlar O'zbekiston Respublikasini mustaqil davlat sifatida tan oldi hamda keng qamrovli aloqalarni yo'lga qo'ydi. Bunday muvaffaqiyatli xalqaro munosabatlar bugungi kunda ham yuqori darajada davom etmoqda.

Adabiyotlar tahlili.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro munosabatlarni tartibga solish va har tomonlama rivojlantirishga doir ko'plab qonunlar qabul qilib kelinmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining IV bobi (17-18-moddalar) “Tashqi siyosat” deb nomlanadi va ushbu moddalarda mamlakatimiz tashqi siyosatining yo'nalishlari, ahamiyati, prinsiplari va boshqa muhim jabhalari mustahkamlab qo'yilgan[1,4-b]. Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan “Taraqqiyot strategiyasi”ning 93-maqsadida Mamlakatning xalqaro munosabatlardagi teng huquqli subyekt sifatidagi rolini oshirish masalalari bayon etilgan[4].

Jahon hamjamiyati va xalqaro masalalar borasidagi o'z fikrlari va qarashlari bilan birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov o'zining ko'plab asarlarida mamlakatimiz tashqi siyosatini rivojlantirishga doir o'z shaxsiy fikrlarini bayon qilib o'tgan. Bunga misol qilib “O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida” asarini keltirish mumkin. Birinchi Prezidentimiz o'z asarida tashqi siyosatga doir fikrlarini bildirar ekan, mustaqillikning dastlabki yillarida ishlab chiqilgan quyidagi tashqi siyosat tamoyillarini sanab o'tgan:

Birinchidan, o'zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olgan holda davlat milliy manfaatlarining ustunligi;

Ikkinchidan, teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;

Uchinchidan, mafkuraviy qarashlardan qat'i nazar hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik;

To'rtinchidan, xalqaro huquq normalarining davlat ichki normalaridan ustuvorligi;

Beshinchidan, tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish[3,270-b].

Ushbu sanab o'tilgan tamoyillar bugungi kunda ham tashqi siyosatimizning eng asosiy tamoyillari qatorida bo'lib kelmoqda va har tomonlama rivojlanib bormoqda.

Asosiy qism. Xalqaro munosabatlar deganda suveren davlatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tushunish mumkin. Xalqaro munosabatlarga davlatlarning rivojlanishiga turtki bo'ladigan huquqiy va siyosiy jarayonlar sifatida qarasak ham mubolag'a bo'lmaydi. Chunki suveren davlatlar biror bir maqsadni ko'zlabgina xalqaro munosabatlarga kirishadilar. Iqtisodiy rivojlanish, o'zaro tajribalar almashish, madaniy aloqalarni mustahkamlash, xavfsizlikni ta'minlash kabi asoslar bularga misol bo'lishi mumkin.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng, ya'ni, 1945-yil 24-oktyabrda yer yuzida tinchlikni mustahkamlash va xavfsizlikni ta'minlash, davlatlarning o'zaro hamkorligini rivojlantirish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkiloti tashkil etilgan. BMTni barpo etish haqidagi qaror AQSH, Birlashgan Qirollik, Xitoy va Sovet Ittifoqi tashqi ishlar vazirlarining Moskvadagi kengashida 1943-yilda, Ustavi esa San Francisco konferensiyasida 1950-yilda qabul qilindi. BMT Ustaviga dastlab 51 davlat imzo chekkan, 2000-yilda esa ular soni 189 taga yetgan. Hozirgi kunda 193 taga yetgan. BMTning shtab kvartirasi New Yorkda joylashgan bo'lib, tashkilotning rasmiy tillari – ingliz, fransuz, rus, ispan va xitoy tillari hisoblanadi. Tashkilot ingliz, fransuz, ispan tillarida ish yuritadi. Bugungi kunda BMT tarkibida oltita organ faoliyat olib bormoqda[7]. O'zbekiston Respublikasi 1992-yil 2-mart sanasida Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'lgan va hozirgi kunda ushbu tashkilot faoliyatining asosiy yo'nalishi bo'lmish sessiyalarda faol ishtirok etib kelmoqda. 1993-yil

24-avgustda BMTning Toshkentdagi vakolatxonasi ochildi. BMTda O'zbekiston Respublikasi vakolatxonasi ham ish boshladi. O'zbekiston Respublikasi 1993-yilda BMTning ta'lim, fan va madaniyat masalalari bilan shug'ullanuvchi tashkiloti – YUNESKOga ham a'zo bo'ldi.

O'zbekiston o'z ovozi va mavqeiga ega bo'lgan a'zo sifatida BMT oldiga muhim va dolzarb masalalarni qo'ydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning BMT Bosh Assambleyasi 48-sessiyasida (1993-yil sentyabr), BMT tashkil etilganining 50 yilligiga bag'ishlangan sessiyada (1995-yil oktyabr), BMT Bosh Assambleyasining "Mingyillik sammiti" (2000-yil sentyabr)da so'zlagan nutqlari dunyo jamoatchiligida katta qiziqish uyg'otdi. Xususan, ushbu xalqaro tashkilotning XX asr so'ngidagi eng yirik anjumanida O'zbekiston rahbari xalqaro terrorizm va narkobiznes bilan bog'liq muammolarni hal etish; mintaqaviy xavfsizlik, jumladan Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash; jahon xavfsizligi tizimini takomillashtirish, BMT faoliyati va tarkibiy tizimini isloh qilishga taalluqli takliflar bilan chiqdi[7]. 2017-yilning sentyabr oyida bo'lib o'tgan BMTning 72-sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z nutqi bilan jahon hamjamiyatida ulkan qiziqish uyg'otdi. Ushbu sessiyada Prezidentimiz ko'plab muhim masalalarga to'xtalib o'tdi: Orol dengizi muammosi, xalqaro tezzorizm va ekstremizmga qarshi kurash, Afg'onistonda tinchlik o'rnatishning targ'ib etilishi shular jumlasidandir. O'zbekiston Respublikasi BMTning teng huquqli a'zosi sifatida bu eng nufuzli xalqaro tashkilotning maqsad va qoidalariga qat'iy amal qilmoqda[5].

O'zbekiston mustaqillikka erishgach ratifikatsiya qilgan dastlabki hujjatlaridan biri "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"dir. Ushbu hujjat 1948-yil 10-dekabrda BMT tomonidan qabul qilingan bo'lib, unda inson huquqlari va manfaatlarini himoya qilishga doir muhim xalqaro normalar belgilab qo'yilgan. Misol qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining moddalari ushbu xalqaro Qonunga mos keladi. "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ning 3-moddasini misol tariqasida olaylik. Ushbu modda quyidagicha bayon etilgan: "Har bir inson yashash,

erkin bo'lish va shaxsiy daxlsizlik huquqlariga egadir"[2,1-b]. Insonning shaxsiy huquqlari belgilab qo'yilgan ushbu moddaga mos ravishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining "Shaxsiy huquqlar" deb nomlangan VII bobini (25-35-moddalar) keltirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 25-moddasi:

"Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir va u qonun bilan muhofaza qilinadi. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir.

O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosi taqiqlanadi"[1,6-b].

O'zbekiston qonunchiligiga bunoan xalqaro hujjatlar ichki hujjatlardan ustun hisoblanib, mamlakatimiz hududidagi barcha normativ-huquqiy hujjatlar xalqaro normalarga mos bo'lishi shart[1,3-b]. Shuni inobatga olgan holda O'zbekiston Respublikasining barcha hujjatlari xalqaro normalarga mos ravishda qabul qilingan. Bu ham xalqari miqyosdagi ishtirokni mustahkamlashga xizmat qiluvchi omil desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi deganda ko'pchilikning xayolida Sobiq Sovet Ittifoqi barham topgandan so'ng undagi mustamlaka davlatlar birlashmasidan tashkil topgan xalqaro tashkilot mujassam bo'ladi.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) – davlatlararo tashkilot. 1991-yil 8-dekabrda Minskda Belarus, Rossiya, Ukraina tomonidan tuzilgan. Ana shu davlat rahbarlari imzo chekkan Bitimda SSSR chuqur tanazzulga uchrab parchalanib ketish natijasida yo'q bo'lganligi qayd qilindi, uchala davlat siyosiy, iqtisodiy, gumanitar, madaniy va boshqa sohalarida hamkorlikni rivojlantirishga intilishini bayon etdi. 1991-yil 21-dekabrda Bitimga Ozarbayjon, Armaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldova, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston qo'shildi, ular Belarus, Rossiya va Ukraina bilan birga Mstaqil davlatlar hamdostligining maqsad va qoidalari to'g'risidagi Deklaratsiyani Olmaota shahrida imzolashdi. 1993-yil dekabrda Mustaqil davlatlar hamdo'stligiga Gruziya qo'shildi. 1993-yil yanvarda Mustaqil davlatlar hamdostligi Ustavi qabul qilindi, u davlatlarning inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, tashqi siyosiy faoliyatini

muvofiglashtirish, umumiy iqtisodiy makonni vujudga keltirish, transport va aloqa tizimlarini rivojlantirish, aholi sog'lig'i va atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy masalalar va immigratsiya siyosati, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash, mudofaa siyosatida hamkorlik qilish va tashqi chegaralarni qo'riqlashda birgalikda faoliyat yuritishni nazarda tutadi[5].

O'zbekiston Respublikasi bugungi kunda MDH davlatlari bilan ko'p tomonlama manfaatli hamkorlikni amalga oshirib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 25-martda 157-sonli (VMQ – 157-son) "Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari bilan ko'p tomonlama hamkorlik masalalari bo'yicha hukumatlararo qo'shma komissiyalar to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida" Qarori qabul qilingan[6]. Ushbu qonunga binoan komissaga asosiy vazifalar yuklatildi va shu tariqa MDH davlatlar bilan do'stona munosabatlar va hamkorlik rivojlanib bormoqda.

Xulosa. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bugungi kunda jahon hamjamiyatida globallashuv juda yuqori bo'lib, unga qo'shilib ketish murakkab vazifalardan biridir. Turli davlatlar va turli tashkilotlar o'rtasida ko'plab munosabatlar o'rnatilmoqda. O'zbekiston Respublikasi esa ushbu globallashuv jarayonini davom ettirayotgan xalqaro jamiyatda o'z o'rniga ega. Xalqaro miqyosdagi ishtirok bugungi kunda mamlakatimizning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi va buni qabul qilinayotgan strategiyalar misolida ham ko'rishimiz mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent-2023. 3,4,6-b.
2. Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi. BMT-1948. 1-b.
3. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. Toshkent-1997, 270-b.
4. O'zbekiston Respublikasi Taraqqiyot Strategiyasi. PF-60-son, 28.01.2022.
5. O'zME. Birinchi jild. Toshkent-2000-y.
6. <https://lex.uz/>
7. <https://uz.wikipedia.org>